



**PEDAGOGIK MAHORAT VA O'QITUVCHINING SHAXSIY-
PROFESSIONAL RIVOJLANISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT
UYG'UNLIGI**

Shaydullayeva Mahliyo Ikromjon qizi

Suyunova Ra'no Romazanovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Anotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik mahorat va o'qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi masalalari nazariya va amaliyot uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Pedagogik mahoratning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati, o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy kompetensiyalari bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsion metodlarni qo'llash, malaka oshirish jarayonlari va xalqaro tajriba asosida pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы педагогического мастерства и личностно-профессионального развития учителя с позиции единства теории и практики. Научно обосновано значение педагогического мастерства в современном образовательном процессе, его взаимосвязь с личностными качествами и профессиональными компетенциями педагога. Особое внимание уделено применению теоретических знаний на практике, использованию инновационных методов, процессам повышения квалификации и изучению международного опыта в развитии педагогического мастерства.

Anotation

This article analyzes the issues of pedagogical mastery and the personal-professional development of teachers from the perspective of the integration of theory and practice. The significance of pedagogical mastery in the modern educational process, as well as its interrelation with teachers' personal qualities and professional competencies, is scientifically substantiated. Particular attention is paid to the application of theoretical knowledge into practice, the use of innovative teaching methods, professional development processes, and the study of international experience in enhancing pedagogical mastery.

Kalit so'zlari: Pedagogik mahorat, shaxsiy rivojlanish, professional kompetensiya, nazariya va amaliyot, innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni, xalqaro tajriba, malaka oshirish



KIRISH.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi va pedagogik mahorati masalasi davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu borada qabul qilingan qonun va farmonlar, hukumat qarorlari hamda konseptual dasturlar pedagogik kadrlar tayyorlashning sifatini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan)da ta'lim jarayonining asosiy tamoyillari sifatida o'qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy oshirib borish, pedagogik faoliyatda zamonaviy metodlarni joriy etish va xalqaro tajribani keng tatbiq etish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil) va keyinchalik qabul qilingan davlat dasturlarida o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishini ta'minlash, uni zamon talablariga mos tayyorlash masalasi alohida e'tibor markazida bo'lgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi tashabbuslari ham pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning davlat siyosatidagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmon — "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirib borish bo'yicha vazifalar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3955-son qarorda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, bu jarayonda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish zarurligi belgilab berilgan. Davlat rahbarining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" haqidagi farmoni pedagogik mahoratni rivojlantirish masalasida konseptual hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Unda ta'lim tizimida raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlash, ularni xalqaro standartlarga mos holda rivojlantirish, ijodkorlik, innovatsion yondashuv va zamonaviy metodikani qo'llash orqali o'qituvchi shaxsini shakllantirish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, 2020-yildan boshlab joriy qilingan "Ustoz" dasturi ham pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy va shaxsiy o'sishini rag'batlantirish, yosh kadrlar uchun ustoz-shogird tizimini mustahkamlashga qaratilgan. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik mahorat va shaxsiy-professional rivojlanishning uyg'unligi o'qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Chunki ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy-ma'rifiy jihatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, o'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligi uning shaxsiy fazilatlari, ma'naviyati, dunyoqarashi, pedagogik yondashuvlari bilan



chambarchas bog‘liqdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-220-son qarori bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur” ham muhim manba bo‘lib, unda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy-professional sifatlarini oshirish va pedagogik mahoratini takomillashtirish masalalariga alohida urg‘u qaratilgan.

Bugungi kunda pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchidan nafaqat puxta bilim, balki metodik yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llay olish, ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘lish, o‘z faoliyatini tahlil qila olish va doimiy ravishda rivojlanishga intilish talab etilmoqda. Shu sababli, pedagogik mahoratni rivojlantirish masalasi faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy mexanizmlar, tajribaviy innovatsiyalar, xalqaro ta’lim tizimida o‘zini oqlagan metodlarni tatbiq etish orqali ham keng o‘rganilmoqda[8].

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi va pedagogik mahoratini shakllantirish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Nazariy nuqtai nazardan, pedagogik mahorat o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalari majmui bo‘lib, ularning kasbiy faoliyatida samarali qo‘llanishini ta’minlaydi. Shaxsiy-professional rivojlanish esa o‘qituvchining individual sifatleri, ijtimoiy faolliigi, innovatsion g‘oyalarni o‘zlashtirish qobiliyati va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishini qamrab oladi. Amaliy tajribada bu ikki jarayonning uyg‘unligi o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ijtimoiy hayotda faol shaxs, tarbiyachi, murabbiy sifatida shakllantiradi. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik mahorat tushunchasi ko‘pincha kasbiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘lanib izohlanadi. Masalan, A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy kabi pedagoglar pedagogik mahoratni shaxsiy fazilatlar, metodik bilim va amaliy ko‘nikmalar birligida ko‘rgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogika olimlari uni innovatsion yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari bilan boyitib talqin qilmoqdalar[9]. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi faoliyatida refleksiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish, mentorlik va ustoz-shogird an’anasini rivojlantirish kabi usullar kasbiy-professional o‘shishni ta’minlovchi muhim mexanizmlardan hisoblanadi. Amaliy misollarda ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston ta’lim tizimida qabul qilingan davlat dasturlari pedagoglarning shaxsiy-professional rivojlanishiga sezilarli darajada turtki bermoqda. Masalan, “Ustoz” dasturi doirasida yosh o‘qituvchilarni tajribali pedagoglar bilan biriktirish orqali nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Xalq ta’limi vazirligi huzurida tashkil etilgan malaka oshirish markazlari o‘qituvchilarga



Learning and Sustainable Innovation

xalqaro tajriba asosida o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, zamonaviy metodlarni o‘zlashtirish imkoniyatini bermoqda[12].

Nazariya va amaliyot uyg‘unligi o‘qituvchining pedagogik faoliyatini boyitishda bevosita namoyon bo‘ladi. Misol uchun, nazariy jihatdan o‘qituvchidan dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvga yo‘naltirish talab etiladi. Amalda esa bu “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat” yoki “Rol o‘ynash” kabi metodlar orqali samarali amalga oshirilmoqda. Natijada o‘quvchilar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki mustaqil izlanish, muhokama va bahs-munozara orqali o‘zlashtiradilar. Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy fazilatlar va psixologik yondashuvlari muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tajriba ham o‘qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan holda tashkil etilishini ko‘rsatmoqda[11]. Masalan, Finlyandiya ta‘lim tizimida pedagoglardan nafaqat nazariy bilim, balki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish va uni amaliyotda qo‘llash talab etiladi. Singapur ta‘lim tizimida esa o‘qituvchilar yil davomida muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashib, o‘z faoliyatini zamon talablariga moslashtirib boradilar. Bu tajribalar O‘zbekistonda ham tatbiq etilmoqda. Jumladan, pedagogik oliygohlarda “Life-long learning” tamoyili asosida uzluksiz ta‘lim tizimi shakllantirilmoqda, bu esa o‘qituvchilarning shaxsiy-professional rivojlanishini ta‘minlaydi. Shaxsiy-professional rivojlanish jarayonida o‘qituvchidan o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, yangi maqsadlar qo‘yish va o‘z ustida ishlash talab etiladi. Amaliy tajribada ko‘rish mumkinki, o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiladigan, dars jarayonini samarali tashkil etish uchun yangicha metodlarni qo‘llaydigan o‘qituvchilar yuqori natijalarga erishmoqdalar. Masalan, Toshkent shahridagi ayrim ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu esa nazariya va amaliyot uyg‘unligining samarali natijasidir. Pedagogik mahorat va shaxsiy-professional rivojlanishning nazariya va amaliyot uyg‘unligi o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini oshirish, ularning zamon talablariga moslashuvchanligini ta‘minlash hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda[7].

Pedagogik mahorat va o‘qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishini nazariya va amaliyot uyg‘unligida o‘rganish nafaqat pedagogika fani, balki ta‘lim siyosatining ham dolzarb masalasi hisoblanadi. Zero, o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati uning nazariy bilimlarni qanchalik chuqur egallagani va ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi. Shaxsiy-professional rivojlanish jarayonida pedagog



nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarini kengaytiradi, balki o'zining kommunikativ qobiliyatlarini, psixologik yondashuvlarini, ijodiy tafakkurini ham doimiy ravishda rivojlantiradi[10].

Ilmiy asoslarda qayd etilishicha, o'qituvchining pedagogik mahorati uch asosiy komponent orqali shakllanadi: **bilim va metodik tayyorgarlik, psixologik-pedagogik yondashuv** hamda **ijodiy faoliyat**. Bilim va metodik tayyorgarlik o'qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etishiga imkon bersa, psixologik yondashuv uning o'quvchilar bilan individual ishlash, motivatsiya yaratish va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishdagi mahoratini belgilaydi. Ijodiy faoliyat esa pedagogni shaxs sifatida o'z ustida ishlashga, yangiliklarni izlashga va ularni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida bu uchlikka qo'shimcha ravishda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish** ham o'qituvchining professional rivojlanishida muhim mezonga aylandi. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish pedagogning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, balki uning mahoratini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonning amaliy isboti sifatida pandemiya davrida onlayn darslar tashkil etilishi ko'rsatildi. Shu davrda raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan pedagoglar ta'lim jarayonini uzluksiz tashkil etishda yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, bunday ko'nikmalarga ega bo'lmagan o'qituvchilar sezilarli qiynchiliklarga duch keldilar[13].

Shaxsiy-professional rivojlanishning chuqur ilmiy asoslarini tadqiq etgan olimlar, jumladan, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, D. Dewey va zamonaviy pedagogika tadqiqotchilari o'qituvchi rivojlanishining markazida refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish turishini ta'kidlaydilar. Refleksiya o'qituvchiga o'z faoliyatini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Masalan, dars jarayonidan so'ng pedagogning o'z darsini qayta ko'rib chiqishi, qaysi metod samarali bo'lganini, qaysi yondashuv o'quvchilarni qiziqitira olmaganini aniqlashi shaxsiy-professional rivojlanishning amaliy ko'rinishidir. Amaliyotdan olingan tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, yuqori pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar o'z faoliyatida bir necha innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtira oladilar. Misol uchun, Toshkent shahridagi ayrim innovatsion maktablarda darslar STEAM-ta'lim (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) asosida olib borilmoqda. Bu nafaqat o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, balki pedagoglarning o'z faoliyatini ijodkorlik bilan boyitishini ham ta'minlaydi. Shu tarzda, nazariy asosda ishlab chiqilgan metodik g'oyalar amalda o'quvchilarning qiziqishi va intellektual rivojlanishida sezilarli natijalar bermoqda. Xalqaro ta'lim tajribasi ham o'qituvchining



Learning and Sustainable Innovation

shaxsiy-professional rivojlanishini nazariya va amaliyot uyg'unligida ko'radi. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimida o'qituvchilarning "Lesson Study" deb ataluvchi metodikasi keng qo'llanadi.

Bu usulda pedagoglar birgalikda darsni rejalashtiradilar, uni kuzatadilar va keyinchalik tahlil qiladilar. Natijada nafaqat dars sifati oshadi, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu tajriba O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va ko'plab oliy ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarida sinov tariqasida qo'llanmoqda. Shuningdek, zamonaviy ta'lim psixologiyasida o'qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham bog'liq ekani ta'kidlanadi. Jamoa bilan ishlash qobiliyati, ota-onalar bilan hamkorlik, o'quvchilarga individual yondashuv, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish pedagogning mahoratini yanada boyitadi. Shu jihatdan, "Ustoz-shogird" an'anasining hozirgi ta'lim tizimida qayta tiklanishi bejiz emas. Bu an'ana yosh pedagoglarga nafaqat kasbiy bilim, balki shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi[6].

Pedagogik mahorat va shaxsiy-professional rivojlanish nazariya va amaliyot uyg'unligida o'rganilganda, ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi zamonaviy bilimlarga ega, o'z ustida ishlashga intiluvchi va innovatsion yondashuvlarni amalda qo'llay oladigan mutaxassis bo'lsa, bu ta'lim jarayonining sifatini tubdan o'zgartiradi. Shu sababli, ta'lim siyosatida pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan huquqiy, metodik va amaliy mexanizmlarni yanada kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[14].

XULOSA

Pedagogik mahorat va o'qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi globallashtirish, raqobatbardoshlik va tezkor axborot almashinuvi davrida o'qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash, yangicha qarash, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikka yo'naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Shu sababli pedagogik mahoratni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki ularni amaliyotda qo'llash, interfaol metodlarni joriy etish, xalqaro tajribalarni o'rganish va shaxsiy-professional rivojlanishni ta'minlash orqali yanada samarali natijalarga erishiladi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy-professional rivojlanishi davlat siyosati, ta'lim tizimidagi islohotlar, xalqaro ta'lim standartlari va jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Bunda farmon va qarorlar, strategik dasturlar, xalqaro tavsiyalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni



uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlaganida, malaka oshirganida va innovatsion yondashuvlarni qo'llaganida ta'lim sifati oshadi, yoshlar zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, pedagogik mahorat va shaxsiy-professional rivojlanish uyg'unligi kelajak ta'limini barqaror rivojlantirishning poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli Farmoni “O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
3. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli Qarori “Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
5. Jalolov J.J. *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: TDPU, 2019. – 352 b.
6. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
7. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELII. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
8. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
9. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
10. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
11. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.



- 12.Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
- 13.Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
- 14.Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.